

GRAMMATIK TAVSIFLARNI TAFOVUTLASHDA FRAZEOLOGIK BIRLIKNING O‘RNI

O‘razboyev O. R.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya:

Har bir til tarakkiyotida asosiy semasiologik qonun o‘sha til birliklari ko‘p ma’noli (polisemantik) xususiyatga ega bo‘lishi bilan aloqador. Ushbu maqolada grammatik tasvirlarni farqlashda frazeologik birliklarning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: semasiologik qonun, ko‘p ma’nolilik, obyektiv ko‘rsatkich, grammatik belgi, hosila ma’no, frazeologik omonim, tayanch leksik birlik

Abstract:

The main semasiological law in the development of any language is related to the polysemantic nature of those language units. This article discusses the role and importance of phraseological units in distinguishing grammatical images.

Keywords: Semasiological law, polysemy, objective indicator, grammatical sign, derived meaning, phraseological homonym, basic lexical unit

Аннотация:

Основной семасиологический закон развития любого языка связан с многозначностью этих языковых единиц. В данной статье рассматривается роль и значение фразеологизмов в различении грамматических образов.

Ключевые слова: Семасиологический закон, полисемия, предметный показатель, грамматический знак, производное значение, фразеологический омоним, базовая лексическая единица.

Ma’lumki, til harakatdagi ijtimoiy hodisa sifatida sharoit taqozosiga muvofiq ravishda muntazam yangilanib turadi. Ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan o‘zgarishlar lisoniy munosabatlarga ichki va tashqi omillar shaklida ta’sir o‘tkazadi. Shuni hisobga olgan hukumatimiz til siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqdi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar



Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-sonli qarori bilan ko'p jildli o'zbek tili izohli lug'atini tuzish vazifasi davlat dasturiga kiritiladi. Uni nashrga tayyorlash bog'liq tashkiliy ishlar O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti (hozirgi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) zimmasiga yuklatildi. Joriy holat muayyan ilmiy va amaliy ehtiyoj hosilasi sanaladi. Negaki, 60 ming so'z va so'z shaklidan iborat amalda mavjud ikki jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati» (1981), birinchidan, keyingi yillarda o'zbek amaliy leksikografiyasi erishgan yutuqlarni qamrab olmagan, ikkinchidan, eskicha andozadagi lug'at maqolasi yangi davr dunyoqarashidagi kemtiklikni to'ldira olmaydi, uchinchidan, to'ldirilgan hamda boyitilgan har bir yangi manbada so'z shakli ma'no siljishi jarayonida grammatik tafovutlanadi.

So'z va uning ma'nosi to'g'risida to'liq etimologik ma'lumot berishga ixtisoslashgan 5 jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati» (2006-2008) A.Madvaliyev tahriri ostida chop etilishi madaniy hayotimizda jiddiy hodisa hisoblanadi. Istilohga yangicha yondashuv, imkon darajasida adabiy tilda faol iste'molda bo'lgan so'z va so'z shakllarini qamrab olishga mayl, ma'no izohlanish tamoyillari tizim shaklida ifodalanishi shundan dalolat beradi. Imlo, talaffuz, so'z yasash hamda nutqda voqelanish me'yorlari orasidagi grammatik belgilar tafovuti masala mohiyatini oydinlashtiradi.

Har bir til tarakkiyotida asosiy semasiologik qonun o'sha til birliklari ko'p ma'noli (polisemantik) xususiyatga ega bo'lishi bilan aloqador. Shunga ko'ra ayrim olimlar ko'p ma'nolilikni til takomili obyektiv ko'rsatkichlaridan biri, deya hisoblaydilar. Shunga binoan o'tgan asr 70-yillaridan boshlab tilshunoslikda frazeologik polisemiya tahliliga doir bir qator nomzodlik ishlari yuzaga kelgan edi. Joriy tadqiqotlarda frazemalar polisemantik xususiyati o'sha til frazeologik tizimi semantik taraqqiyoti o'ziga xos ifodasi ekanligi konkret dalillar asosida ochib berilgandi. Ammo frazeologiya fanida ko'p ma'noli frazema paydo bo'lish jarayoniga doir boshqacha qarashlar ham yo'q emas. Jumladan, N.N.Amosova, I.I.Chernisheva, Y.D.Apresyan kabi olimlarning fikricha, polisemantik frazema semantik strukturasi ma'no ottenkasi (semalar) o'zaro bir-biriga bog'liq, aloqador munosabatda bo'ladi. Ya'ni ko'p ma'noli frazemalar semantik strukturasi mustaqil (asosiy) ma'no bo'lib, keyingi ma'no ottenkalari o'sha asosiy (bosh, yetakchi) ma'noga tobe munosabat kasb etadi. Yana bir guruh olimlar (G.I.Kramorenko, V.P.Jukov, V.N.Teliya) fikricha, frazemalar semantik strukturasi ma'nolar o'zaro bir-biriga bog'liq holatda emas, balki o'zaro aloqador, o'rindosh holatda mavjud bo'ladi. Jumladan, V.P.Jukov talqiniga ko'ra,



polisemantik frazemalarning ma'no strukturasiidagi semalar o'zaro teng qiymatli, bir xil, qo'shaloq xarakterga ega bo'ladi. Shunga ko'ra ko'p hollarda bu semalar qaysi biri yetakchi, asosiy xususiyatga, qay biri yordamchi, hosila ma'no ekanligini aniqlash qiyin. Frazema turli ma'nolari birlamchi va ikkilamchi ko'chim mahsuli bo'lmay, ularning har biri yakka holda o'sha frazemaga genetik jihatdan yaqin bo'lgan erkin so'z birikmasi ma'nosiga yaqinlashadi. Taniqli frazeolog M.I.Sidorenko ko'p ma'noli frazemalar ssmemalaridagi ana shunday tafovutni quyidagicha ikki guruhga ajratib ko'rsatgan edi. Ularning birinchisi ko'p ma'noli frazemalar paradigmatic va sintagmatic xususiyatlariga bevosita ta'sir etmaydigan tafovut bo'lib, ularni olim semema farqlar deb nomlaydi. Bunday farqlar frazema ma'nolari o'zaro aniqlik va mavhumlik, qo'shimcha ottenkalar mavjudligi yoki yo'qligiga ko'ra bir-biriga bog'lanadi, Masalan, rus tilidagi пускать корни // пустить корни polisemantik frazemasini ikki ma'noli bo'lib, ularning biri "biror joyda mustahkam o'rnashib, tomir qo'yimoq" bo'lsa, keyingisi "alohida kuch-quvvatga ega bo'lmoq"dir (ФСРЯ, 370). Yoki rus tilidagi перемывать косточки // промывать косточки polisemantik frazemasini ham ikki ma'noli, ular o'zaro aloqador semalarni ifodalaydi: "бировнинг ғийбатини қилмоқ", "гўрига ғишт қаламоқ" (РУФЛ, 101).

M.Sidorenko talqiniga ko'ra, PFlar sememalari orasidagi ikkinchi xil farqli holatlar semem-designator tafovut bo'lib, ular PFlar o'zaro grammatik strukturasi, sintaktik qurshovi, valentligi, turli funksional stillarga xoslanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, rus tilida uchraydigan "рукой подать" polisemantik iborasi ikki ma'noli bo'lib, ulardan biri "juda yaqin, ko'l uzatsa yetgudek" semasini ifoda etsa, keyingisi esa "juda tez, bir zumda" semasiga ega (РЎФЛ, 157) kabilar.

Rus tilishunosligida frazemalar ma'no taraqqiyoti haqida boshqacha karashlar ham mavjud. Masalan, N.M.Shanskiy fikricha, "polisemantik frazemalardagi ma'nolar doim bir-biri bilan o'zaro o'z va ko'chma, bosh va hosila ma'no qirralari (semalar) sifatida munosabatda bo'ladi. Agar frazema tarkibidagi semalarda shunday munosabat bo'lmasa, u holda ular ko'p ma'noli frazemalar emas, balki frazeologik omonimlar sanaladi. Xususan, валять дурака (ўзини жинниликка, анқовликка солмоқ) frazemasini ko'p ma'noli frazema bo'lmay, frazeologik omonim sanaladi¹. A.I.Molotkov esa masalaga boshqacha yondashadi: "Ko'p ma'noli frazemalar chegarasida ham xuddi ko'p ma'noli so'zlar singari ma'no qirralari bir-biri bilan o'z

¹ Шанский Н.И. Фразеология современного русского языка. - М.: "Высшие школа", 1985. - С. 43.

² Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. - Л.: "Науки", 1977. -С. 115.



va ko'chma ma'no munosabatida bo'ladi. Agar ko'p ma'nolari frazemalar tarkibidagi ma'nolar o'zaro bog'lanishini, o'z va ko'chma munosabatini aniqlab bo'lmasa, u holatda tushuncha PFlar sirasidan ham chiqib ketadi"².

Izohli lug'atda, eng avvalo, ma'no chegarasi belgilab olinadi. Leksik birlikka tenglashtirilgan iborada semantik munosabat asosiy o'ringa ko'tariladi. Bosh so'z va ustama ma'no sharhini har xil tipdagi lug'at havolasi muqoyasasida o'rganish muammoga to'g'ri yondashuvni kafolatlaydi. Binobarin, FB uchun xos xususiyat uning ko'p ma'noliligi bilan o'lchanadi. Shu jihatdan, o'zbek tilidagi polisemantik iboralar asosiy qismi ikki ma'noli tarkibga tayanadi. SH.Rahmatullayevning "O'zbek tili frazeologik lug'ati" (O'TFL)¹da bunday iboralar asosan bir ma'noga birlashuvchi polisemantik frazeologizmlar deb yuritiladi. Aslida, "frazeologik polisemiya deganda iboraning o'zi bittadan ortiq frazeologik ma'no anglatishini tushunamiz. Vazifa ana shu frazeologik ma'nolarning o'zaro munosabatini o'rganishdan iborat². Masalan, tilimizda "adi-badi aytishmoq" polisemantik iborasi bo'lib, O'TFLda uning quyidagi ikki ma'nosi qayd qilingan: 1. turli mavzularda yengil-yelpi suhbatlashmoq: "Qizlar adi-badi aytishib qorong'i tushib qolganini sezmay qolishdi" O.Yoqubov. Adolat manzili. 2. so'z talashmoq, janjallashmoq [O'TFL, 18]: "Daryodil shart. Burilib eshikni yopdi. U yana ozgina adi-badi aytishib o'tirsa, qattiq mushtlashuv boshlanib ketishini, Shahzoda uchun o'ch olmay qo'ymasligini, boshiga tosh bilan o'rib, majaqlab tashlashdan o'zini zo'rga tiyib turganini bilardi" M. Ismoil. Chiroylisan tengi yo'q. Lekin O'TILda bu ibora bir ma'noli sifatida quyidagicha izohlangan: "bir-biriga tegadigan gap-so'z qilmoq, behudaga tortishmoq" [O'TIL-5, 1, 40]: "U hazil harom ekanligini his etib, adi-badini darhol to'xtatgancha, qo'yin cho'ntagida bor narsalarni stol ustiga olib qo'ydi" O.Muxtor. To'rt tomon qibla. Bu iboraning O'TFLda qayd qilingan ikkinchi ma'nosi esa O'TIL da "adi-badiga bormoq" shaklida berilgan hamda bu ibora quyidagicha izohlangan: janjallashishgacha bormoq, san-manga bormoq: "Kichik oyim (uni ovuldagilar ishchan ayol, baraka topsin, bunaqasi topilmaydi, deb maqtashardi) brigadir bilan adi-badiga borib o'tirmas, buyurgan ishlarini qilaverar, yur deganda yuraverar, qo'lidan sira ketmon tushmasdi" Ch.Aytmatov. Jamila. O'TFL da esa "adi-badiga bormoq" iborasi alohida bir ma'noli ibora sifatida "janjallashuv darajasiga yetmoq" tarzida izohlangan [O'TFL, 18]: "Xonadon a'zolari yig'ilgach, kechki tamaddi paytida ota va qiz orasida adi-badi aytishuv kuzatilmadi" N.Ismoilov. Baxtning olis

¹ Мазкур тадқиқот қабул қилинган шартли қисқартмалар ишнинг охирида келтирилган.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (фразеологик бирликларда полисемия, синонимия, вариация, антонимия, омонимия ва омонимлик). – Тошкент: Фан, 1966. – Б.13.



manzili. Ibora O‘TILda “adi-badi aytishdi” shaklida berilib, uning ikki ma’nosi quyidagi shaklda berilgan: 1) “turli mavzuda yengil-yelpi suhbatlashdi”; 2) “so‘z talashdi, janjallashdi” [O‘TIO‘L,7].

O‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladigan “barmog‘ini tishlamoq” iborasi ham ikki ma’noli tarkibga ega. TFLda bu frazema quyidagi ikki ma’nosi ko‘rsatilgan: 1.hech narsa qilolmay, natijaga erisha olmay lol qolmoq: "Xongirey barmog‘ini tishlab qolsa, qay ahvolga tusharkan?» T.Malik. Shaytanat. 39.2. afsuslanmoq [O‘TFL, 27]:

"Endi nima qilsam ekan,- dedi barmog‘ini tishlab Rena" N.Ismoilov. Baxtning olis manzili. 87. O‘TIL-5 da ham ibora ikki ma’nosi ta’kidlangan: 1) afsus qilmoq, attang demoq: "- Attang, -barmog‘in tishladi Said" T.Jo‘rayev. Ilinj. 133.; 2) lol qolmoq, hayron bo‘lib o‘ylanib qolmoq, xayol surmoq [O‘TIL-5, 1, 170]:

"Vaziyat ancha murakkablashgach, butun qism barmoq tishlab qoldi" N.Ismoilov. Baxtning olis manzili. 76. Polisemantik ibora “O‘TIO‘L”da «barmog‘ini tishladi" shaklida berilgan hamda uning ikki ma’nosi quyidagi izohlangan 1) "hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qoldi"; 2) "afsuslandi" [O‘TIO‘L, 8]. Xuddi shuningdek, tilimizdagi "boshini silamoq" iborasi ham ikki ma’nolidir. Bu ibora O‘TFLda quyidagi ma’nolari qayd qilingan: 1. kaft yurgizib erkalatmoq, suymoq, yupatmoq:

"Kampir og‘ir xo‘rsinib, nevarasining boshini siladi va peshonasidan o‘pib qo‘ydi" Sh.Bo‘tayeov. Bir kunlik mehmon. 23.; 2. g‘amxo‘rlik qilmoq, siylamoq, hayotini yengillashtirish yo‘lida yordam bermoq [ЎТФЛ, 49]:

"Endi u Bek himoyasiga o‘tganligi angladi, akaxoni uning boshini silashi tayin" (T. Malik. Shaytanat. 118.) 'Boshini silamoq" polisemantik iborasi O‘TIO‘L da qayd etilmagan. Bu polisemantik iboraning ikki ma’nosi O‘TIL-5da quyidagicha izohlangan: 1) erkalamoq, yupatmoq:

"Tarzan «akang chempion bo‘ladi», deya qizchanning boshini silamoqchi bo‘lganida u chayon chaqkandek sapchidi" (T. Malik. Shaytanat. 487.) 2) o‘z panohiga olib ardoqlamoq, boqmoq, tarbiya qilmoq [O‘TIL-5, 1, 337]:

"Farzand sifatida boshini silasang, keksayganingda ardog‘ida bo‘lasan» (CH.Aytmatov. Jamila. 39.)

Izohli lug‘atda so‘z shakllarining mazmunga munosabati tahlil qilinadi. To‘g‘rirog‘i, tayanch leksik birlikni urg‘ulash hamda uning semantik sarhadlarini belgilash talqin asosini tayinlaydi. Ma’no aniqlovchisi, tushuncha qo‘llanilish doirasiga oydinlik kiritish bu tipdagi lug‘atlar vazifasini ustuvorlashtiradi. Tavsifiy belgilar konstruksiyalar birikuvini hosil qiladi. Joriy butunlik iborani shakllantiradi va uni so‘zga tenglashtiradi. Lug‘aviy ma’no esa izoh taqozosini keltirib chiqaradi. Shu ma’noda, semantik interpretatsiya jarayoni frazeologik matritsalar uchun ham qonuniy shartga aylanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдусаидов А. Матбуот тилида окказионал фразеологизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, 4-сон, 84-86-бетлар.
2. Ақобиров С. Луғат - сўз хазинаси, Тошкент: Фан, 1977. - 40 б.
3. Ақобиров С. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида фразеология // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966, 6-сон, 24-29-бетлар.
4. Аксамитов А.С. Развитие фразеологического состава белорусского языка, Автореф. дис... доктора филол. наук, Минск: 1983. -41 с.
5. Актуальные проблемы фразеологии (материалы научной конференции. Ноябрь 1996 года). - Самарканд: СамГУ, 1997. - 120 с.

